
Gazdan foydalanish qoidalarini bilish va ularga qat'iy rioya qilish zarur!

Favqulodda vaziyatlar vazirligi aholidan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan gaz-havo aralashmasining chaqnashi, yong'in hamda is gazidan zaharlanishning oldini olish maqsadida, quyidagilarga rioya qilishingizni so'rab qoladi:

- Gaz va muqobil yoqilg'i (ko'mir, o'tin neft mahsulotlari va boshqalar) turlaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya eting;
- Agar xonada gaz hidini sezsangiz, chiroq va uchqun chiqaruvchi moslamalardan foydalanmang, darhol xonani shamollatish chorasini ko'ring;
- Tezda gazni o'chiring va derazalarni oching;
- Yorituvchi hamda boshqa elektr asboblarni yoqmang yoki yoniq bo'lsa o'chirmang;
- Gazni yoqishdan oldin gorelkaga gugurt tutib, shundan keyingina gazni oching.
- Nostandart (qo'lbola yasalgan) yoki sertifikatga ega bo'lmagan isitish pechlari va anjomlaridan foydalanmang;
- Isitish pechlari dudburonlarining toza va soz holatda bo'lishini ta'minlang;
- Gaz yoki boshqa muqobil yoqilg'iga moslashtirilgan isitish pechlari hamda suyultirilgan uglevodorod gaz balonlarini (anjomlari)ni dam olish (uxlash) xonalariga olib kirmang;
- Oshxonada o'rnatilgan tabiiy gazda ishlovchi gaz plitalaridan xonalarni isitish maqsadida foydalanmang;
- Xonalarni isitishda ochiq olov (ko'mir va o'tin cho'g'lari)dan foydalanmang;
- Havoni almashtiruvchi shamollatish shaxtalari yoki tuynuklarni ochiq va ishchi holatda bo'lishini ta'minlang;
- Uyingizga kelgan FVV, «Hududgazta'minoti» xodimlari tavsiyalariga rioya qiling.

Ravshan Xolmatov, Farg'ona shahar FVB boshlig'i o'rinbosari.
2023-02-15 22:11:20